

BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA MUZEYLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

**Ilalov Ilgiz Nizomovich
Islomova Komila Payzullayevna (SamDU magistranti)**

Annotatsiya

Ushbu maqolada barkamol avlod tarbiyasida muzeylarning o'рни va ahamiyati hozirgi zamon muzeylari madaniy-tarixiy va tabiiy-ilmiy qadriyatlarni mushohada qilishga mo'ljallangan ijtimoiy axborot institutini o'zida nomoyon etganligi haqida fikr yuritilgan.

Hozirgi zamon muzeylari madaniy-tarixiy va tabiiy-ilmiy qadriyatlarni mushohada qilishga mo'ljallangan ijtimoiy axborot institutini o'zida nomoyon etadi. Ular muzey ashyolarini axborot vositasida muhofaza qilish, to'plash va tarqatish, jamiyatning ma'naviy ehtiyojlarini qandirish uchun xizmat qiluvchi ixtisoslashtirilgan madaniy-ma'rifiy maskanlar hisoblanadi¹. Muzeylar nafaqat tabiat va jamiyatning noyob va xilma-xil ashyolari xazinasini, balki muhim ilmiy, ma'rifiy-tarbiyaviy markazlari ham hisoblanadi. Keyingi yillarda yosh avlodni tarixga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida tarixiy mavzudagi muzeylar ochilmoqda. O'zbekiston o'z fuqorolari, xususan, yoshlarning tarix bo'yicha bilimlarining rivojlanishiga, ularda vatanparvarlik, ona-Vatanga mehr to'yg'ularining kamol topishiga ahamiyat bermoqda. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov aytgandek, bu tabarruk to'yg'u yulchi yulduz, ishonchli qomus bo'lib xizmat qiladi, u islohatlar yo'lini ko'rsatadi, ko'zlangan maqsaddan toyilishga yo'l qo'ymaydi. Tarixni bilish odamni manan boy, kuchli va insonparvar qiladi, Ma'naviylikka alohida urg'u berib ta'kedlaydiki, o'z xalqi tarixi, uning madaniyati va maqsadlarini chuqur tushunishi va bilishga tayanganida qudratli kuchga aylanadi². Mamlakatimiz

¹ Mozeydan sado jurnalining 2003-yil 1-soni, 2-bet

² Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch". -Toshkent.: "Ma'naviyat", 2008-yil, 56 -bet.

Prezidenti muzeylarning yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyatini alohida ta'kidlaydi: "Muzey-

Xalq tarixining kuzgusi ekanligini nazarda tutsak, u shu xalqning farzandlari-kelajak avlod qalbida faxr-iftihor tuyg'usini uyg'ota olishi kerak. Bizning vazifamiz esa buyuk tariximizni mana shunday ma'rifiy maskanlar yordamida avlodlarimizga to'laligicha yetkazib berishdan iborat"³.

Muzey tarixiy va madaniy va moddiy yodgorliklarni to'pash va saqlash, o'rganish va tashviq qilish ishlariniamalga oshiruvchi ilmiy-ma'rifiy maskan bo'lib, o'zining ekspozitsiyava ko'rgazmalarivositasida tashviqot va tarbiyaviy ishlarni bajaradi.Respublikamizning turli shaharlarida,jumladan, poytaxtimiz Toshkent shahrida "Temuriylar tarixi Davlat muzeyi", 2002-yilda "Qatog'on qurbonlari xotirasi" hamda Termizda "Arxeologiya muzeyi"lari tashkel etildi. "O'zbekiston Davlat muzeyi", "O'zbekiston Davlat san'at muzeyi" va viloyatdagi qator muzeylar qayta ta'mirlandi.

"Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish haqidagi" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 1998-yil 12-yanvardagi PF-1913-sonli farmoni Muzeysunoslar ko'pdan kutgan hujjat bo'lib, muzeysunoslik fanining ravnaqiga keng yo'l ochib berdi.Vazirlar mahkamasida ham muzeylar faoliyatini yaxshilash bo'yicha bir qator qarorlar qabulqilindi. Jumladan,1992-yil 21-apreldaO'zbekiston tarixi Davlat muzeyi qaytadan tashkel etildi. "Muzeylar milliy istiqlol g'oyasiga asoslanib jihozlanishining ahvolini o'rganish va bu borada ularga yordam ko'rsatish to'g'risida"gi 2002-yil 11-iyundagi 07\105-282-sonli Qarori respublikamizdagi barcha muzeylarning faoliyatini o'rganishga qaratildi.

Muzeylar, ayrimlar tasavvur qilgandek, shunchaki, har xil buyumlarning yoyilgan oddiy holati emas, balki o'zida ma'lum bir davr tarixi va ma'lum bireksponat haqida aniq ma'lumot berishga mo'ljallangan tabarruk dargohdir.⁴

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, muzeylar madaniy va ma'rifiy tarbiya beruvchima'rifat o'chog'iga aylandi.

³ Islom Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q".-Toshkent.: "O'zbekiston", 1998-yil, 14-bet.

⁴ Moyedan sado jurnalining 2003-yil 2-soni, 2-bet.

Prezidentimiz tashabbusi bilan ishlab chiqilgan “Ta’lim to’g’risidagi” qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturiasosidafarzandlarimizni bilimli, yetuk salohiyatli, jismonan va manan yetukinsonlar etib tarbiyalashning yaxlit mexanizmi shakillantirildi.Ushbu dasturni amalga oshirishda muzeylarning o’ziga xos o’rni bor.

XXI asr muzeylari faoliyatiga nazar tashlasak, ular kechagi ekspazitsiyalardagi bir xillik, o’zgarmas ko’rgazmalar va zerikarli ekskursiyalardan voz kechib, tashrifchilarga manzur bo’ladigan yangi yo’nalishlarda faoliyat ko’rsatmoqdalar.

Muzeylar yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, mustaqil faoliyat yuritish, voqea va hodisalargabefarq qaramaslik va ,eng asosiysi, o’z moddiy-madaniy merosini asrash tuyg’ularini shakillantirishga asosiy manba bo’lib xizmat qilmoqda. Bunday muzeylar bolalarga o’yin, ijod va muloqot orqali dunyoni anglashni o’rgatadi

O’zbekistonda ilk bora 2011-yilning 19-avgustida O’z FA O’zbekiston tarixi davlat muzeyi qoshida “Mo’jizalar olamida”

Bolalar muzeyi tashkel etildi. Bu muzey 4 yoshdan 14 yoshgacha bo’lgan bolalarga mo’ljallangan. Unga kirgan bola n

Nafaqat uni tomosha qilish, balki turli mashg’ulotlarnibajarish, tarixiy voqealar bilan muloqotga kirishish, qiziqqan eksponatlariniushlab ko’rish yoki yasab ko’rish imkoniyatiga ega bo’ladi.

Muzeyning “Yosh erxeolog” deb nomlangan bo’limida bolalar arxeologiyaga oid tadqiqotlar bilan tanishish, qazishmalarning guvohi bo’lish, tangalarni qidirish va ularning davrini aniqlash kabi jarayonlarda bevosita ishtirok etishlari mumkin. Bu bo’limda bolalar tarixning qadimgi davrlariga sayohat qilish imkoniyatiga ega bo’lib, ajdodlarimiz foydalangan eng qadimgi mehnat qurollarini va manzilgohlarini ko’rishlari mumkin.

Muzeyning “Yozuv tarixi” bo’limida bolalar dunyodagi qadimiy yozuvlar bilan tanishadilar. O’zbekistonda ming yillar davomida 21 ga yaqin oromiy, yunon, so’g’d, arab va boshqa yozuvlar shakillanib rivojlandi. Bu bo’limda bolalar qadimiy yozuv turlari: Oromiy, so’g’d, grek, arab va boshqa yozuvlar bilan tanishishlari va o’zlari ham ushbu yozuvlarni yozib ko’rishi mumkin. Muzeydagi “Yosh kulol” bo’limi eng qiziqarli

bo'limdir. Bunda bolalar o'z qullari bilan loydan turli o'yinchoqlar, shakllar yasashi mumkin⁵. Bunday muzeylarning tashkel etilishi yoshlar tarixiy bilimlarning ortishiga va tarixiy jarayonlarni jonli ko'z oldiga kelishiga yordam beradi.

Muzeylarning faoliyatini Samarqand viloyati muzeylar misolida olib qaraydigan bo'lsak, bu yerda Samarqand Davlat muzey quriqxonasi, O'lkashunoslik muzeyi, Afrosiyob muzeyi, Ulug'bek memorialniy muzeyi, Sadriddin Ayniy uy muzeyi, Hoji Mo'yin Shukrullayev uy muzeyi, Gulxaniy va boshqa turdagi muzeylar faoliyat olib bormoqda. Muzeylar faoliyatini birgina O'lkashunoslik muzeyi bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, muzeyning Paxtachi, Ishtixon, Kattaqo'rqon tumanlaridagi filyallari faoliyat ko'rsatayapti. Muzey xodimlari maktablar, kollej, litsey va Samarqand Davlat Universiteti bilan hamkorlikda o'z faoliyatini olib bormoqda. Muzey ikki qismdan iborat: 1.Tarix; 2.Tabiat.

Muzeydagi eksponatlar vatanimiz tarixining eng qadimgi davrkaridan boshlab to hozirgi davrgacha bo'lgan tarixini o'zida nomoyon etadi. Bu eksponatlar har yili yangilanib, yangi ma'lumotlar bilan boyitiladi. Muzeyda o'quvchi yoshlar ishtirokida an'anaviy 5 yildan beri 18-oktabr Samarqand kuniga bag'ishlab. "Gulla aziz Samarqandim" shiori ostida gullar bayrami o'tkazilib bormoqda. 2013-yil Mustaqilligimizning 22 yilligiga bag'ishlangan ekspozetsiyalar majmui ochildi. Va shu paytdan boshlab talaba yoshlarning ma'naniyat va ma'rifat soatlari shu yerda o'tkazilmoqda.

Muzeylar faoliyatini shakillantirishda ularning turli zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlantirish bugungi yosh tomoshabinlarni e'tiborini ko'proq jalb qilishga yordam beradi.

⁵Moyedan sado jurnalining 2011-yil 4-soni, 2-3-betlar.